



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Safarova Madina Azamat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi muhim pedagogik muammo sifatida nazariy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsining transformativ roli, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar yoritilgan. Shuningdek, kompetentlik yondashuvining mazmun-mohiyati ochib berilib, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining ilmiy talqinlari qiyosiy tahlil asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, kompetensiya, kompetentlik yondashuvi, pedagogik faoliyat, professionalizm, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, refleksiya.

Abstract: This article theoretically examines the formation of professional competence in future teachers as an important pedagogical issue. It highlights the transformative role of teachers in the modern educational system, their significance in social development, and the contemporary requirements for their professional and personal training. The essence of the competency-based approach is revealed, and a comparative analysis of the scientific interpretations of the concepts of "competence" and "competency" is presented. The findings indicate that the development of professional competence among future teachers is one of the key factors in improving the quality of education.

Key words: professional competence, competence, competency-based approach, pedagogical activity, professionalism, future teacher, pedagogical training, reflection.

Аннотация: В данной статье проблема формирования профессиональной компетентности будущих учителей рассматривается как важная педагогическая проблема и анализируется с теоретических позиций. Освещаются трансформирующая роль личности учителя в современной системе образования, его значение в развитии общества, а также современные требования, предъявляемые к его профессиональной и личностной подготовке. Раскрывается сущность компетентностного подхода, проводится сравнительный анализ научных интерпретаций понятий "компетенция" и "компетентность". Результаты исследования показывают, что развитие профессиональной компетентности будущих педагогов является одним из важнейших факторов повышения качества образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, компетенция, компетентностный подход, педагогическая деятельность, профессионализм, будущий учитель, педагогическая подготовка, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi qanday bo'lishi kerakligi masalasi MDH davlatlari ta'lim makonida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ta'limning asosiy transformatori bo'lgan o'qituvchi va ustoz mamlakatning tezkor rivojlanishida yetakchi omillardan biriga aylanib bormoqda, chunki yosh avlodning bilimdonligi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, ilm-fan, madaniyat va milliy an'analarni saqlash va rivojlantirish, davlat mustahkamligini oshirish va uning xavfsizligini ta'minlashning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Bularning barchasi tez o'zgarayotgan sharoitlarda ishlashga tayyor, nafaqat o'z fanini, balki qo'shma fanlar, integratsiyalashgan kurslar va o'quvchilar tanlagan fanlarni ham o'qita oladigan yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashni talab qiladi. Shu bilan birga, bu kelajakdagi pedagoglarning asosiy kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni bekor qilmaydi, balki yanada dolzarb qiladi.

Pedagogik kasbning asosiy mazmuni insonlar bilan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Pedagog kasbida esa markaziy vazifa – ijtimoiy va jamiyat maqsadlarini anglab, boshqa insonlarning sa'y-harakatlarini ushbu maqsadlarga erishishga yo'naltirishdan iborat. Aksincha, professional bilim, ko'nikma va malakalarga

ega bo'lmagan pedagog birlamchi pedagogik vazifalarni ikkilamchi vazifalardan ajrata olmaydi va shu bilan pedagogik imkoniyatlar va vositalarni samarali ishlata olmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR RO'YXATI

“Ta’lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy boshqaruv faoliyati sifatida o’ziga xosligi shundaki, u ikki tomonlama mehnat ob’ekti bilan bog’liqdir. Bir tomondan, uning asosiy mazmunini insonlar bilan o’zaro munosabatlar tashkil etadi: Ikkinchi tomondan, bunday kasblar har doim insondan ma’lum bir sohada maxsus bilimlar, ko’nikmalar va malakalarni talab qiladi. Pedagog, har qanday rahbar kabi, o’quvchilarning faoliyatini va ularning rivojlanish jarayonini yaxshi bilishi va tushunishi lozim.

Shu sababli, zamonaviy ta’lim jarayonlarining dinamikasida pedagogning kasbiy kompetentsiyasining asosiy ahamiyati tobora ko’proq anglanmoqda. U tizimli, integrativ birlik sifatida, intellektual va amaliy ko’nikmalar sintezi shaklida ko’riladi. Bunday kasbiy kompetensiya pedagogik ta’lim mazmunida kognitiv, funksional va madaniyatshunoslik birliklarini o’z ichiga oladi. Shunga qo’shimcha sifatida, pedagogning shaxsiy xususiyatlari ham kiradi: qadriyatga yo’naltirilganlik, qobiliyatlar, xarakter xususiyatlari, bolalar bilan muloqot qilishga va amaliy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik va boshqalar. Bu xususiyatlar shaxsga o’z salohiyatidan samarali foydalanish, murakkab madaniyatga mos faoliyat turlarini bajarish, doimiy o’zgarib turuvchi jamiyat va kasbiy faoliyat sharoitida tez va muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi [4, 6].

Ushbu ta’rifda pedagogik faoliyatning kasbiy va shaxsiy, nazariy va amaliy komponentlarining barcha struktura elementlari aks etgan bo’lib, ular o’qituvchining turli pedagogik vaziyatlarni hal qilishdagi ijodiy o’zini namoyon qilishining mezonini va vositasi sifatida xizmat qiladi, shu bilan pedagogik qadriyatlar va texnologiyalar yaratishga yo’naltiriladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kasbiylikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini tahlil qilganda ikki tushuncha ishlatiladi: kompetentlik va kompetensiya.

Tadqiqotchilar (Yevroshin V. I. Lutsenko L.I. va boshqalar) ta’kidlashicha, ilmiy adabiyotlarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari o’rtasida aniq va umumqabul qilingan farqlash mavjud emas. Bitta narsa ravshanki, ushbu tushunchalarning asosida inglizcha “competence” va “competency” so’zlari yotadi. Ular sinonim sifatida talqin qilinadi va ikki xil ma’noda – “kompetensiya” hamda “kompetentlik” tarzida tarjima qilinadi [8, 10].

A. V. Xutorskiy o’z qarashlarida quydagicha yozadi: “Kompetensiya—bu shaxsning o’zaro bog’langan sifat-lari (bilimlar, ko’nikmalar, malakalar, faoliyat usullari) majmuasi bo’lib, ma’lum savollar va jarayonlar doirasiga nisbatan aniqlanadi va ularga munosabatda sifatli, samarali faoliyatni ta’minlash uchun zarur; kompetentlik esa shaxsning tegishli kompetensiyaga ega bo’lishi bo’lib, bu kompetensiya shaxsning unga va faoliyat ob’ektiga munosabatini ham o’z ichiga oladi” [5].

Biroq ko’pchilik tadqiqotchilar bir fikrda yakdildir: kompetentlik yondashuvining nazariy asoslari faoliyatga yo’naltirilgan yondashuvga yaqin bo’lsa-da, u “yanada samaraliroq hisoblanadi, chunki o’xshash harakat usullariga asoslangan faoliyatlar guruhini birlashtiruvchi bir nechta umumlashtirilgan tayanch kompetensiyalarni ajratib ko’rsatish mumkin”.

Shu bois, kompetentlikka ega bo’lish – bu ma’lum bilim, aniqlangan xususiyat va ma’lum sohada xabar-dorlikka ega bo’lishni bildiradi; kompetensiyaga ega bo’lish esa – ma’lum bir sohada amaliy imkoniyatlarga ega bo’lishni anglatadi.

Oliy pedagogik ta’limni isloh qilishda kompetentlik yondashuvi ta’limning fundamental maqsadlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ularning aksariyati UNESCO hujjatlarida ifodalangan: bilim olishni o’rgatish (o’qishni o’rgatish); ishlash va daromad topish (mehnat uchun o’qish); hayot kechirish (hayot uchun o’qish); birgalikda yashash (hamkorlik va ijtimoiy hayot uchun o’qish).

Mazkur yondashuvning pedagog kadrlarni tayyorlashdagi metodologik ahamiyati shundan iboratki, u pedagogik jarayonning barcha komponentlarini birdek qamrab oladi. Aynan shu yondashuv orqali ta’lim maqsadlarini belgilash, pedagogik faoliyatning yakuniy natijalarini aniqlash, pedagogik ta’lim mazmunini belgilash, shuningdek kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish jarayonlari yo’lga qo’yiladi.

Biz muhokama qilayotgan masala ya’ni bo’lajak o’qituvchilarning kompetentsiyasini shakllantirish shuni anglatadiki, turli darajadagi pedagogik vazifalarni professional darajada hal qilishni o’rgatish zarur. Bu vazifalar maxsus vazifalardan boshlanib, ya’ni ma’lum bir fan bo’yicha o’qituvchi sifatidagi mas’uliyatdan tortib, umum-kasbiy xarakterga ega bo’lgan tashkilotchilik va kommunikatsion vazifalargacha bo’ladi.

Pedagogik kasb bir vaqtning o’zida o’zgartiruvchi va boshqaruvchi xususiyatga ega. Shaxsning rivojlanish jarayonini boshqarish uchun u kompetentli bo’lishi lozim. Shu sababli, pedagogning kasbiy kompetentligi uning shaxsiy yaxlit strukturasi doirasida nazariy va amaliy tayyorgarlik birligini ifodalaydi va uning professionalizm darajasini belgilaydi.



Kompetentlik yondashuviga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning fundamental asosi sifatida murojaat etish insoniyat taraqqiyoti iqtisodiy o'sishdan ko'ra ko'proq shaxs rivojlanish darajasiga bog'liq ekanligini anglashga asoslanadi. Bu esa "inson resurslari" degan klassik tushunchadan "inson kompetentligi" konsepsiyasiga o'tishni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya mutaxassisning rivojlanuvchi kasbiy faoliyati bilan yanada chambarchas bog'liqdir.

Pedagogning professional faoliyati – bu uning mehnat faoliyatining bir turi bo'lib, pedagogik faoliyat deb ataladi. "Pedagogik" atamasi shaxsning pedagogik kasbga mansubligini, pedagogik faoliyatni amalga oshirishini ko'rsatadi. Shu bilan, "pedagogning professional faoliyati" va "pedagogik faoliyat" atamalari bir xil mazmuni ifodalaydi. Shunga ko'ra, "kasbiy kompetentlik" va "pedagogik kompetentlik" atamalari sinonim sifatida ishlatilishi mumkin. Kasbiy kompetentlik – pedagogik faoliyatni tavsiflash uchun kalit tushuncha hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi – bu lavozim talablariga muvofiq professional faoliyatni samarali bajarish qobiliyati, u asosiy ilmiy bilimlar va pedagogik faoliyatga bo'lgan emotsional-qiymatli munosabatga tayangan holda shakllanadi. Bu kompetentlik professional ahamiyatga ega qarashlar va shaxsiy sifatlar, nazariy bilimlar, professional ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni nazarda tutadi [9].

V. Xutorskiy, S. Y. Shishov, V. A. Kalney, V. G. Suxodolskiyning fikrlariga ko'ra, "kasbiy kompetentlik" tushunchasining mohiyatini aniqlash, uni shunday tasavvur qilish imkonini beradi: u – bu bilim, tajriba va professional ahamiyatga ega shaxsiy sifatning integratsiyasi, ular pedagogning professional faoliyatni samarali bajarish qobiliyatini aks ettiradi va o'qituvchining professionalizmi hamda pedagogik mahoratini o'z ichiga oladi [5, 6].

Bunda asosiy ustuvorlik kasbiy-kompetent harakatlarni amalga oshirish ko'nikmasiga beriladi. Masalan, kompetentlik yondashuvi nuqtayi nazaridan ta'lim maqsadlari o'quv harakatlariga aylantiriladi, ular esa o'quv materialini o'zlashtirish darajasini belgilaydi. Ushbu tizim parametrlari esa asosan o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning umumiy pedagogik kompetentligining umumlashtirilgan mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Umummadaniy tayyorgarlik – madaniyat tilini, dunyoni anglash usullarini egallashni, jumladan o'quv-bilish va axborot kompetentligini o'z ichiga oladi;
2. Ijtimoiy-mehnatga tayyorgarlik – ijtimoiy o'zaro hamkorlik me'yorlari, usullari va vositalarini o'zlashtirishni nazarda tutadi;
3. Kommunikativ tayyorgarlik – boshqani tushunish, yuzaga kelgan vaziyatga mos ravishda muloqot qurish qobiliyatini anglatadi;
4. Shaxsiy o'zini belgilash sohasidagi kompetentlik – o'zini anglash, o'z o'rnini tushunish, o'z harakatlari uchun qadriyat, maqsad va mazmuniy yo'nalishlarni tanlash tajribasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bunday turdagi kasbiy kompetentlik umumiy nazariy hamda psixologik-pedagogik fanlarning maxsus blokini o'rganish jarayonida, shuningdek pedagogik amaliyot davomida, ya'ni bo'lajak kasbiy faoliyat kontekstida shakllanadi. Ularning barchasi birgalikda haqiqiy professionalizmning asosini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagog professionalizmi integrativ shaxsiy sifat sifatida o'z mazmunida quyidagi komponentlarni birlashtiradi: motivatsion-qadriy, kognitiv, operatsion-faoliyatli va intellektual-refleksiv komponentlar.

Motivatsion-qadriy komponent kasbiy-pedagogik faoliyatga tanlovli yo'naltirilganlikni belgilaydi hamda o'qituvchi professionalizmining axloqiy-psixologik mazmunini aks ettiradi.

Kognitiv komponent asosan kasbiy ta'lim va o'z-o'zini ta'lim jarayonida shakllanadi hamda ma'lum darajagacha rivojlangan bilimlarni ifodalaydi. U kasbiy faoliyatning mazmuniy tomonini aks ettiradi va bilimlarning hajmi, kengligi, chuqurligi, tizimliliigi hamda tafakkur uslubi bilan tavsiflanadi.

Operatsion-faoliyatli komponent o'z ichiga samarali kasbiy ko'nikma va malakalar majmuasini, pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishning mukammal algoritmlari va usullarini egallashni oladi. Uning asosiy mezon ko'rsatkichlari sifatida o'qituvchida bilish, loyihalash, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar tizimining mavjudligi namoyon bo'ladi.

Intellektual-refleksiv komponent o'qituvchini o'z tajribasi va kasbiy faoliyati natijalarini anglash, bilish va tahlil qilishga yo'naltiradi. Mazkur komponentni o'zlashtirish mezoni sifatida refleksiv pozitsiyaning shakllanganligi va o'qituvchining o'zini ijobiy qabul qilishi namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasini bitirayotgan yosh mutaxassislar imkon qadar yuqori malakali, kasbiy faoliyatga puxta tayyorlangan bo'lishlari zarur. Buning uchun esa kompetentlik yondashuvining nazariyasi va amaliyotiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining kasbi – ijodiy kasbdir. O'qituvchi har doim o'quvchining shaxsini rivojlantirish bilan shug'ullanadi, biroq har safar u o'ziga xos individual xususiyatlarga ega yagona o'quvchi bilan ishlaydi. Har bir o'quvchiga alohida yondashuv talab etiladi, mavjud bilim va ko'nikmalar har safar yangi variantlarda qo'llaniladi. Pedagogik vaziyatlar takrorlanmasdir – ishtirokchilar, ularning soni, shart-sharoitlar doimiy o'zgaradi. Shu sababli, o'quvchilarning rivojlanish darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari va istaklari haqidagi ma'lumotga ega bo'lish juda muhimdir. Bu esa pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida yangi faoliyat vositalari, metodikalar va usullarni izlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy ta'lim tizimining dinamik rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi va globallashuv sharoitida pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni rivojlantiruvchi, ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi va madaniy qadriyatlarni uzatuvchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish oliy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlik pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifatlarining integrativ birligidan iborat bo'lib, u pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi. Kompetentlik yondashuvi pedagogik tayyorgarlikni faqat bilimlar tizimi bilan cheklab qo'ymasdan, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy hal etish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning kasbiy kompetentligi uning professionalizm darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u shaxsiy va kasbiy sifatlarining integratsiyasi natijasida shakllanadi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida kompetentlik yondashuviga tayangan holda tashkil etilgan nazariy va amaliy tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga puxta tayyorlanishini ta'minlaydi hamda ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кухарев И.В. На пути к профессиональному совершенству: Кн. Для учителя. - М.: Просвещение, 1990. (Мастерство учителя; идеи, советы, предложения)
2. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений / С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова. – Российская АН.; Российский фонд культуры; - 3-е изд., стереотипное испр. и доп. -М.:АЗЪ, 1995
3. Турчинов А.И.. Профессионализация и кадровая политика теории и практики / А.И. Турчинов. - М.: Московский психолого-социальный институт, Флинта, 1998
4. Ушаков Д.И. Толковый словарь русского языка: в 4 т. Т. 1 " Под ред. Д.И.Ушакова. - М., 1985
5. Хуторской А.В. Общепредметное содержание образовательных стандартов / А.В.Хуторской, - М., 2002 161
6. Шишов, С.Е. Мониторинг качества образования в школе. / С.Е. Шишов, В.А. Кальней. - М.: Педагогическое общество России, 1999
7. Болотов В.А. Сериков В.в. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. // Педагогика. 2003. № 10. С. 8-14.
8. Ерошин В.И. Перейти Рубикон, призвана административная реформа. //Лидер образования. 2005. № 5.
9. Иванова Е.О., Осмальская И.М., Шалыгина И. В. Содержание образования: культурологический подход. // Педагогика. 2005. № 1. С. 13-19.
10. Луценко Л. И. Компетентностная модель повышения квалификации директора школы. // Педагогика. 2005. № 3. С. 61-68.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.